“TASDIQLAYMAN”
Toshkent shahar Madaniyat
Boshqarma boshlig`i
_____ SH.S.SHARIPOV
2023 yil “____”_____

TOSHKENT SHAHAR
MADANIYAT BOSHQARMASI
TASARRUFIDAGI YASHNOBOD TUMANI
19-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT
MAKTABINING

NIZOMI

TOSHKENT-2023yil

Mazkur ustav O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15- fevraldagi “O`zbekiston Respubliga Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida”gi PQ-2778-son, 2017 31- maydagi “Madaniyat va san`at soxasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir va chora – tadbirlari to`g`risida”gi PQ - 3022-son Qarorlari va O`zbekiston Respublika Vazirlar Maxkamasini 1998 yil 5 yanvardagi “Ta`lim muassasalari ustavini ishlab chiqarish tartibi to`g`risida”gi 5- son va 2016 5 - maydagi “Bolalar musiqa va san`at maktablari to`g`isidagi nizomni tasdiqlash xaqida” gi 144-son qarorlari, xamda O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2017 yil 22 iyundagi “O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar va san`at maktablarining namunaviy ustavini tasdiqlash to`g`risida”gi 361-sonli, Toshkent shaxar Madaniyat bosh boshqarmasining 2017 yil 3 iyuldagi 57- sonli buyruqlariga muvofiq Yashnabod tumani 19-son bolalar musiqa va san`at maktab faoliyatining asosiy qoidalarini belgilaydi.

1-BOB Umumiy qoidalar

1. Toshkent shaxar Madaniyat boshqarmasi Yashnobod tumani 19- sonli bolalar musiqa va san`at maktabi (bundan buyon matn 19- sonli BMSM deb yuritiladi ) maktabdan tashkari ta`lim muassasasi xisoblanib, uning asosiy faoliyati bolalarga musiqa va san`at turlarini o`rgatish unib – o`sib kelayotgan yosh avlodning istedodini xar tomonlama kamol toptirish va madaniy saviyasini yuksaltirish, o`quvchining milliy va jahon musiqalari, tasviriy san`atining yuksak namunalarida keng baxramand bo`lishi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan.

2. 19-sonli BMSM o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstutisiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezindentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlariga va boshqa qonun xujjatlariga, xamda O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (bundan buyon matnda – vazirlik deb yuritiladi) xayati qarorlari, buyruqlari va topshiriqlari shuningdek o`z ustaviga amal qiladi.

3. 19-sonli BMSM davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs xisoblanadi va o`z ustaviga, mustaqil balansiga, shaxsiy g`azna xisob varaqalariga, O`zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan va o`z nomi yozilgan muxrga, shtampga va blankalarga ega bo`ladi.

4. 19-sonli BMSMning Namunaviy ustav asosida ishlab chiqilgan.
Ta`lim muassasasaning to`liq nomi:

**TOSHKENT SHAXAR MADANIYAT BOSHQARMASI YASHNOBOD TUMANI 19-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI** (qisqatirilgan nomi: YASHNOBOD TUMANI 19 – SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI):

Ta`lim turiga tegishliligi – maktabdan tashqari ta`lim muassasasi:

Ta`lim faoliyati yo`nalishi – musiqa va san`at:

O`qish shakli – kunduzgi (8:00 -20 -00):

Mulkchilik shakli – davlat ta`lim muassasasi:

Toshkent shaxar Madaniyat boshqarmasining Yashnobod tuman 19 – bolalar musiqa va san`at maktabining muassasasi xisoblanadi.

Ta`lim muassasasining identifikasiya raqami **(CTIR): - 300661791:**

Ta`lim muassasasi **2007 yil 29 dekabrda 000171 –son** raqam bilan Toshkent shaxar Xamza tumani xokimiyati xuzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro`yxatdan o`tgazish inspeksiyasi ro`yxatidan o`tkazilgan;

Yuridek manzili 100146, Toshkent shahar Yashnobod tumani, Oxangrabo 4-a uy

19-son BMSM ustavi Toshkent shaxar Madaniyat Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bolalar musiqa va san`at maktabiga bevosita raxbarlikni Toshkent shaxar xalq ta`limi Bosh boshqarmasi boshlig`i tomonidan O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi bilan kelishgan xolda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direkdor amalga oshiradi.

5. 19 - sonli BMSMning umumiy faoliyati Vazirlik tomonidan muvofiqlashtiriladi Bolalar va san` at maktabi boshqaruvining yuqori organi Toshkent shaxar xalq ta`limi bosh boshqarmasi hisoblanadi.

2-BOB Muassasaning maqsad va vazifalari

6. 19- Sonli BMSMning maqsad yosh avlodning musiqa va san`at turlariga qiziqishi va qobilyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an`analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan xurmat ruxida tarbiyalash, ma`naviy va ma`rifiy saviyasini xar tomonlama oshirishdan iborat.

7. 19 - Sonli BMSMning vazifalari quyidagilardan iborat:

O`quvchilarning ma`naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish;

O`quvchilarning is`tedodini xar tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish;

O`quvchilarni milliy va jaxon musiqasi, tasviriy san`atning yuksak namunalaridan va o`zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan baxramand bo`lishi uchun zarur sharoitlar yaratish;

Milliy xamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o`quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

O`quvchilarga umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san`ati, tasviriy va amaliy san`at yo`nalishlari bo`yicha bilimlarning boshlang`ich asoslarini o`rgatish orqali ularni musiqa va san`at olamiga jalb etish;

Iqtidorli o`quvchilarni musiqa va san`at yo`nalishlari bo`yicha o`rta maxsus kasb - xunar ta`limi muassasalarida o`qishini davom ettirish uchun tayyorlash;

8. 19-BMCM o`quvchilarni qiziqishgalari va extiyojlariga ko`ra,ularni ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi,) va san'at (xoreografiya, teatr san'ati,

tasviriy va amaliy san’at) yo’nalishlarida (keyingi o’rinlarda ta’lim yo’nalishlari deb ataladi) faoliyatini amalga oshiradi.

9. 19BMSM ning xuquqlari quyidagilardan iborat:

Xodimlari hamda o’quvchilardan uning ustavi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini talab qilish;

Musiqa va san’at sohasidagi mutaxassislarini va tajribali o’qituvchilarni uslubiy yordamga jalb qilish;

O’quvchilarning o’quv va mustaqil ko’rgazmalarga taqdim etish;

Barcha madaniy tadbirlarda (ko’rik ko’rgazmalar va tanlovlarda) ishtirok etish uchun qatnashchilarning safarlarini tashkil etish;

Ta’lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning takomillashgan va zamon talablariga mos shakllari, vositalari hamda usullarini qo’llash;

Moddiy-texnik bazasini mustahkamlash , ta’lim mazmuni va samaradorligini oshirish bo’yicha madaniyat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga taklif kiritish;

O’z faoliyatini takomillashtirish maqsadida qonunchilikga muvofiq tarzda ko’char va ko’chmas mulklarni ijaraga olish;

Moliyalashtirishning qonun xujjatlarida ta’qiqlanmagan turli manbalar hisobiga byudjetdan tashqari mablag’larni jalb etish;

Mahaliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda o’z qoshida maktab sho`balarini (filial) tashkil qilish ;

10. 19-son BMSM qonun xujjatlariga muvofiq boshqa xuquqlariga ham ega bo’lishi mumkin

11. 19-son BMSM ning majburiyatlari quyidagilarhisoblanadi:

Madaniyat boshqaruv organlarining hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, buyruqlari va boshqa meyoriy xujjatlari ijrosini ta’minlash, topshiriq va ko’rsatmalarini bajarish; ma’naviy yetuk, iqtidorli, sog’lom va barkamol avlodni shakllantirish; o’z ustavida belgilangan vazifalarni bajarish; yo’nalishlar bo’yicha tasdiqlangan o’quv dasturlari asosida maktabning yillik o’quv rejasini, dars va mashg’ulotlar jadvalini ishlab chiqish; maktabdan tashqari ta’limga jalb etish maqsadida targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borish; o’qituvchi , va o’quvchilar tomonidan o’z vazifalarini bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlash; o’qituvchui hamda konsertmeystrlarini qayta tayorlashni va ularning malakasini oshirishni ; o’z moddiy-texnik bazasining taminoti saqlanishi undan oqilona foydalanishini va rivojlanishini taminlash; kadrlar salohiyatini rivojlantirish; o’quvchilarning yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar (bundan buyon ota onalar deb yuritiladi) bilan shartnomalar tuzish ; amaldagi xujjatlariga muvofiq ichki mehnat tartib qoidalarini o’rnatish ; yo’nalishlar bo’yicha o’quvchilar, o’qituvchilar va boshqa mutaxassislarni tuman (shahar) , viloyat, respublika va xalqaro ko’rik tanlovlar, festivallar, ustoz saboqlari, mahorat darslari, hamda boshqa musiqa va san’at tadbirlarida ishtirok etishlarini ta’minlash.

12. 19-son BMSM ishini tashkil etish va ish tartibi uning ichki mehnat tartibi qoidasida belgilanadi.

13. 19-son BMSM zimmasiga qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

3-Bob. Ta’lim oluvchilar

14. 19-son BMSM rahbariyati har yili iyun-avgust oylarida o’quvchilarni o’qishga qabul qilish ishlarini tashkil etadi.

O’quvchilar 19-son BMSM ga yo’nalishlar kesimida vazirlik tomonidan ajratilgan qabul kvotalari doirasida o’qishga qabul qilinadi.

15. 19-son BMSM qabul sinovlarini o’tkazish uchun o’quv yili boshida direktorning buyrug’i bilan 5 kishidan iborat tarkibda 1-sinfga qabul qilish, maktabdan maktabga o’tkazish , 2-va yuqori sinflarga qabul qilish va o’quvchilar safiga qaytadan tiklash bo’yicha qabul komissiyasi tuziladi.

16. Qabul komissiyasi tarkibiga 19-son BMSM direktori, direktorning o’quv-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari (masul kotib) va tajribali pedagog xodimlar kiritiladi. Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori qabul komissiyasi raisi hisoblanadi.

17. 19-son BMSM ga o’qishga kirish uchun o’quvchinig ota-onalari har yili 1-avgust-25-avgust mobaynida qabul komissiyasiga quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:

a) ta’lim yo’nalishi (yo’nalishlari) ko’rsatilgan ariza;

b) o’quvchinig tug’ilganlik haqidagi guvohnomasinig nusxasi;

v) o’quvchiga berilgan tibbiy ma’lumotnoma;

g) 3-4 o’lchamli 2 ta fotosurat

18. 19-son BMSM da har yili 1 avgustdan 25 avgustgacha xujjatlar qabul qilinadi va xujjatlar topshirgan o’quvchilar uchun maslahat darslari tashkil etiladi.

19. Qabul sinovlari har yili 31 avgustgacha o’quvchinig ijodiy qobiliyatini aniqlash maqsadida o’tkaziladi. Qabul sinovlari qabul komissiyasi huzuzrida o’tkaziladi. Qabul sinovlari bir marta topshiriladi, qayta topshirishga yo’l qo’yilmaydi.

20. Qabul komissiyasi 1-sinfga kirayotgan o’quvchining ota-onaning arizasida ko’rsatilgan ta’lim yo’nalishi bo’yicha uning quyidagi ijodiy qobiliyatini qabul sinovalrida aniqlaydi:

Musiqa (fortepiano, torli cholg’ular, estrada cholg’u ijrochiligi, xalq cholg’ulari, damli va zarbli cholg’ular, an’anaviy cholg’u ijrochiligi, an’anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi) yo’nalishi bo’yicha musiqa ritmini xis qilishi, qo’shiq aytishi, musiqani eshitishini va eslab qolishi;

San’at yo’nalishlari:

Xoreografiya bo’yicha jismonan ma’qulligi (tana va oyoqlarning egiluvchanligi), ritmini his qilishi, musiqani eshitishini;

tasviriy va amaliy san’at mutaxassisliklari bo’yicha tasavvuridagi narsa-buyum yoki manzarani chiza olishi ;

teatr san’ati mutaxassisliklari bo’yicha she’r yoki monologni yoddan ifodali o’qishi va ovoz yoki harakatga nisbatan taqlid qila olishi;

21. Qabul komissiyasi har bir o’quvchining qobiliyatini alohida 5 ballik tizimida baholab , qabul bayonnomasini rasmiylashtiradi. 1-sinfga oq’ishga qabul qilish to’g’risida qaror qabul komissiyasining ijobiy qaroriga asosan muassasa direktori o’quvchini 1-sinfga o’qishga qabul qilish to’g’risida buyruq chiqaradi;

22. 19-son BMSM ning 2-va yuqori sinflariga qabul qilish uchun o’quvchilar mazkur Ustav ning 20-bandida nazarda tutilgan qabul sinovlaridan tashqari vazirlik tomonidan tasdiqlangan o’quv dasturlari bo’yicha tegishli sinfdagi bilim darajasiga qo’yiladigan talablar asosida quyidagi maxsus fanlar bo’yicha ham qabul sinovlarini topshiriladilar:

a) musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, Estrada xonandaligi) yo'nalishi bo'yicha-mutaxassislik va solfedjio fani;

b) san'at yo'nalishlari bo'yicha:

xoreografiya-mumtoz raqs, parter fani;

tasviriy va amaliy san'at-chizma tasvir, rang tasvir, kompozisiya fani;

teatr san'ati – aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna harakati fani.

23. Ikkinchi va undan yuqori sinflariga qabul qilish qabul komissiyasi o'quvchini topshirgan imtihonlar natijasi bo'yicha tayyorgarlik darajasini inobatga olib, tegishli sinfga taqsimlaydi va o'qishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qabul komissiyasining bayonnoma qaroriga asosan BMSM direktori o'quvchini o'qishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi.

24. O'quvchilarni o'quv yili davomida o'qishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi, boshqa bolalar musiqa va san'at maktabidan o'qishi ko'chirilgan o'quvchilar bundan mustasno.

25. O'quvchining ota-onasi o'z xoxishi (arizasi) ga ko'ra o'quv yili davomida yoki tugagandan so'ng farzandini u ta'lim olayotgan bolalar musiqa va san'at maktabidan 19-son BMSM ga o'tkazish xuquqiga ega. O'quvchi 19 - son BMSM ga faqatgina o'zi ta'lim olib kelgan sinfi va yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi.

26. Boshqa bolalar musiqa va san'at maktabidan 19-son BMSM ga o'tkazilgan o'quvchilar tomonidan o'qishni davom ettirish uchun mazkur Ustavning 17 - bandida nazarda tutilgan arizadan tashqari quyidagi xujjatlar taqdim etiladi:

Ta'lim olgan joyidan ma'lumotnoma;

O'quvchining baholar (o'zlashtirish) tabeli;

Yakka tartibdagi ish rejasi (musiqa yo'nalishlari uchun) .

27. O'quvchini bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga o'tkazish ta'limning faqatgina birinchi va ikkinchi yilida amalga oshiriladi (ota-onasining bir xududdan boshqa xududga ko'chib ketishi yoki ishga o'tishi bundan mustasno).

28. Bir ta`lim yo`nalishidan boshqasiga o`tgazish maktab direktorining buyrug`iga asosan besh kishidan iborat tarkibida tuziladigan o`quvchilarni o`qishini bir ta`lim yo`nalishidan boshqasiga ko`chirish komissiyasining (bundan buyon matndan ko`cherish komissiyasi deb xisoblanadi)

29. Ko`cherish komissiyasi tomonidan o`quvchini bir ta`lim yo`nalishidan boshqasiga o`tgazishda uning ta`lim olayotgan yo`nalishi bo`yicha maktabdan tashqari ta`limga qo`yiladigan davlat talablarining minimal darajasini bilishi xisobga olinadi

Ko`cherish komissiyasi o`quvchining topshirgan imtixonlar natijasi bo`yicha tayyorgarlik darajasini inobatga olib tegishli sinfga taqsimlaydi va qabul qilgan qarorni o`quvchiga darxol e`lon qiladi.

Ko`chirish komissiyasi xar bir o`quvchini topshirgan imtixonlari bo`yicha aloxida "5" ballik tizimida baxolab, ko`chirish bayonnomasini rasmiylashtiradi.

30. Ko`chirish komissiyasining qarori ijobiy bo`lgan taqdir, uhga asosan direkdor o`quvchi tanlangan ta'lim yo`nalishga o'tgazish to'g'risida buyruq qabul qiladi.

Yuqori sinflarda bir ta`lim yo`nalishidan boshqa talim yo`nalishiga o`tgazishga yo`l qo`yilmiydi.

31. O`quvchilar bolalar musiqa va san`at maktabidan yil davomida quyidagi xolatlarda chetlashtirilishi mumkin;

O`z xoxishiga binoan;

O`qishning boshqa bolalar musiqa va san`at maktabiga ko`chirilishi munosabati bilan;

Salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

Akademik o`zlashtira olmaganligi (qarzdorligi) uchun;

O`qish intizomini va ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun;

O`qish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lovdan ozod etilgan o'quvchilar bundan mustansno);

O'quvchining cud tomonidan ozodlikdan maxrum etilganligi munosabati bilan vafot etganligi sababli.

Direktorning o`quvchini bolalar mo`siqa va san`at maktabidan chetlashtirish to`g'isidagi buyrugiga quyidagilar biri asos bo'ladi,

Ota- onaning arizas, pedagogic krhgash qarori, o`qtuvchisining bildirishnomasi.

32. Turli sabablarga ko'ra o'qishni tashlab ketgan 19-son BMSM o'quvchilari ota- onalar arizasiga muvofiq 3 yil davomida qaytadan o'quvchilar safiga tiklanishi mumkin.

33. 19- son BMSM o`quvchilar safiga qayta tiklanish uchun o`quvchilar vazirlik tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari bo`yicha tegishli sinfdagi bilim darajasiga quyiladigan talablar asosan quyidagi maxsus fanlar bo'yicha qabul sinovlarini topshiradilar;

a) musiqa (portepiano, torli chorg'ular, Estrada cholg'u ijrochiligi,xalq cholgulari, damli va zarbli cholg'ular, an`anaviy cholg'u ijrochiligi an`anaviy xonandalik, akadimik xonandalik, Estrada xonandaligi) yo`nalishi bo'yicha – mutaxassislik va solfetjio fani;

b) san`at yo;nalishilari bo`yicha;

xoreografiya- mumtoz raqs,chizma parten fani;

tasviriy va amaliy san`at - chizma tasvir, rang tasvir, kampozisiya fani;

teatr san`ati – aktiyorlik maxorati, saxna nutqi, saxna xarakati fani;

Qabul komissiyasi o`quvchini topshirgan imtixonlar natijasi bo`yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab, o'quvchini tegishli sinfga taqsimlaydi va qabul qilgan qarorni o'quvchiga darxol e`lon qilinadi.

Qabul komissiyasi qarori ijobiy bulgan taxdirda,unga asosan director o'quvchini o'quvchilar safiga tiklash to'risida buyruq qabul qiladi.

34.. 19-son BMSM direktir bilan o'qishga qabul qilingan o'quvchilarning ona onalari o'rtasida o'qish muddatiga shartnoma tuziladi.

35. 19-son BMSM ning o/quvchilar kontingenti bir yilda bir marotaba - sentyabr oyida tasdiklanadi.

36. 19-son BMSM o'quvchilarning xuquqlari quyidagilardan iborat;

Maktabdan tashqari ta`limga quyilgan davlat talablari asosida asosida ixtiyoriy ravishda ta'lim olish;

Qiziqishiga ko'ra ta`lim yo'nalishini tanlash;

Bir necha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim olish;

Insoniylar qadr –qimmatining xurmat qilinishni talab qilish, vijdon erkinlIgi, axborot erkinligi,o'z dunyo qarashlari va etiqodini ifodalash;

Bolalar musiqa va san`at maktabining o`quv va ish faoliyatini takomillashtirishga oid takliflar berish;

Bolalar musiqa va san`at martabi o'quvchilari qonun xujjatlarida belgilangan boshqa xuquqlariga xam ega bulishi mumkin.

37. 19-son BMSM o`quvchilarni majburiyatlarning quyidagilardan iborat;

Bolalar musiqa va san`at maktabining ichki tartib qoidalariga rioya qilish;

Bolalar musiqa va san`at maktabining moddiy- texnik bazasidan samarali foydalanish va uni asrab avaylash;

Jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish;

O'z ijodiy qobilyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash ko`nikmasini xosil qilish va uni amalga oshirish;

Bolalar musiqa va san`at maktabi o'quvchilariga qonun xujjatlariga asosan boshqa majburiyatlar xam yuklatilishi mumkin.

4-Bob O'quv - tarbiyaviy va ilmiy uslubiy ish

38. 19- son BMSM da o'quv tarbiya ishlari vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalari va o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi/

39. Ta`lim jaroyonining maqsadi bolalarningijodiy saloxiyatining yanada keng ochib berish, musiqa va san`atning boshqa turlarini chuqurroq tushunishi xamda ularga nisbatan mexr muxabbat uyg`otish, musiqa va tasviriy san`at soxalarida jaxon buyuk merosini o'rganib bilishlari uchun shart- sharoitlar yaratishdan iborat.

40. Talim jaroyonining asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi;

O'quvchilarga ta`lim tarbiya berish uchun xar tamonlama yondashuvni taminlash;

O'quvchilar o'zlarining maktabdan tashqari ta`lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga yordam beradi;

Xar bir o'quvchini bilim darajasi va ijodiy imkoniyalarini aniqlash va rivojlantirish;

O'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilash maqsadida o'quv tarbiya va uslubiy ishlarni takomillashtirish ;

O'quvchilar o'z qiziqishlari bo'yicha kasb xunarning boshlang'ich sirlarini egallashlarida ota onalarga ko'maklashish;

O'quvchilarning mustaqil bilim olishlari va ijodiy mexnat qilishlariga shart-sharoit yaratish;

Maktabdan tashqari ta'lim sifatini yanada oshirish;

Maktabdan tashqari ta`lim to'g'risidagi qonun xujjatlariga nazarga tutilgan boshqa vazifalarning amalga oshirilishini taminlash;

41. 19-son BMSMda o'quv- tarbiyalash jarayonini tashkil etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi;

O'quvchilar bilan guruh bo'yicha va yakka tartibda mashg'ulotlar olib boorish;

O'quvchilarning mustaqil ishi;

Nazorat darslari;

Akademik konsertlar, texnik sinovlar;

Mustaqil ravishda ishlangan ijodiy maxsulotlar ko'rgazmasi;

42..O'quvchilarning bilimi va ijodiy maxorati quyidagi tartibda belgilanadi.5 (a'lo),4 (yaxshi), 3 (qoniqarli), 2 (qoniqarsiz),

43. Yakka tartibda o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchilar xar bir o'quvchiga o'quv yili uchun shaxsiy ish rejasi uchun guruxli tartibda o'quv mashg`ulotlarini olib boradigan o'qituvchilar taqvimiy ish rejasi tuziladilar.

44. 19-sonn BMSMda musiqa (portipiano, torli cholg`ular, Estrada cholg`u ijrochiligi, xalq cholg`ulari, damli va zarbli cholg`ular, an`anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akadimik xonandalik, estradalik xonandalik,) va san'at (xoreografiya,

tasviriy san`at, amaliy san`at,teatr san`ati)ta`lim yo'nalishlari mavjud bo'lib, bolalarni 1-sinfga qabul qilish yoshi va o'qish muddatilari quyidagicha belgilanadi;

T/r	Ta`lim yo'nalishlari	Qabul yoshi	O'qish muddati
	Musiqa yo'nalishi		
1.	Fortepiano	6 – 9	7-yil
2.	Torli cholg`ular	6 - 9	7-yil
3.	Estrada cholg`u ichrojiligi; Fortepiano;torli cholg`ular; Damli va zarbli cholg`ular	6 – 9 6 -11	7-yil 5-yil
4.	Xalq cholg`ular	6-11	5-yil
5.	Damli va zarbli cholg`ular	6 - 11	5-yil
6.	An`anaviy cholg`u ijrochiligi	6 - 11	5-yil
7.	An`anaviy xonandalik	6 - 11	5-yil
8.	Akademik xonandalik	6 - 11	5-yil
9.	Estrada xonandaligi	6 - 11	5-yil
San`at yo`nalishi			
10.	Xoreografiya	6 -11	5-yil
11.	Tasviriy san`at	6 -11	5-yil
12.	Amaliy san`at	6 - 11	5-yil
13.	Teatr san`ati	6 - 11	5-yil

` **45.** O’quv yili bolalar musiqa va san`at maktabida 2 sentabrdan kelgusi yilning 31 may kuniga qadar davom etadi va to’rtda chorakka bo’linadi;

46. O’quv tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi;

O’quv yilining davomiyligi -34- xafta;

O’quv xaftasining davomiyligi - 6 kun

Dars mashg’ulotining davomiyligi - 45 daqiqa;

Dars mashg`ulotilari oralig`idagi tanaffusningdavomiyligi –kamida 5 daqiqa etib belgilanadi.

Bayram (ishlamaydigan) kunlariga to`g’ri kelib dars mashg`ulotlarining mavzulari ko’p dasturlarini ixchamlashtirgan xolda keyingi dars mashg`ulotlarida o’tkaziladi.

47. O’quv yili davomidagi ta`tillarning muddati quyidagicha belgilanadi.

Kuzgi ta`til- 4 noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

Qishqi ta`til -28 dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

Baxorgi ta`til - 21 Martdan boshlab 7 kalendar kuni;

Yozgi ta`til -1 iyundan boshlab 2 sentabrgacha;

Ta`tilning oxirgi kuni bayram (ishlamaydigan) kunga to’g’ri kelib qolgan taqdirda dars mashg’ulotlari keying ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

Choraklar oralig’ida ta`tillar davrida bolalar musiqa va san`at maktabining pedagogik xodimlari tomonidan mashg`ulotlarning o`ziga xos ijodiy dasturlarini ishlab chiqish, o’zlashtirish past bolgan o’quvchilarni bilim saviyasini taxlil qilish va ular bilan qo`shimcha ishlash, ularga maslaxat berish ota- onalar va o`quvchilar o`rtasida musiqa va san`atning inson ma`naviy va madaniy saviyasini oshirishdagi o`rnini targ`ib tashviq qilish maqsadida tadbirlar tashkil etish, o`quvchilar uchun shaxsiy va taqvimiy ish rejalari tuzish kabi kabi amalga oshiriladi.

48. 19-son BMSM da sinfdan sinfga o’tgazish va bitiruv imtixonlari xar yili 10 may - 31 may mobaynida bo’linma tajribali o’qtuvchilaridan tuzilgan komissaya boshchiligida o`tgaziladi. Komissiya tarkibi direktor buyrug`I bilan tasdiqlanadi. Barcha sinovlar natijalari “5” ballik tizimda baxolanadi.

49. 19- son BMSM bitiruvchilariga iyun oyi o’qishni tugatganligi to’g`risida guvoxnoma beriladi.

50. 19-son BMSM ni tugatishiga bir yil qolgan,iqtidorli barcha fanlardan o’zlashtirish yuqori bolgan, o`z yo’nalishi bo`yicha ta`limni kiyingi bosqichida o’qish istagini bildirgan o`quvchiga mutaxassislik o’qtuvchisining tavsiya xati va ota onasi arizasi, umumiy o’rta ta`lim maktabi bitiruvchisi ekanligi shuningdek, o’quv rejasining to`liq bajarilishini xisobga olib pedagogic kengash qarori bilan o’qish muddati bir yilga qisqartirilishi mumkin.

51. Ota –onalarning arizasi asosida o`quvchilar bolalar musiqa va san`at maktabi direktorning buyrug`iga muvofiq biy yil muddatga akadimik ta`til berilishi mumkin.

52. Bitiruv imtixonlarini topshira olmagan o`quvchilarga bolalar musiqa va san`at maktabida o`qiganligi to`g`risida ma`lumotnoma beriladi.

53. 19-son BMSM da o`quvchilarga ta`lim berish yakka tartibda yoki bir xil yoshdagi va turli yoshdagi bolalar guruxlarida ularning qiziqishlariga ko`ra bir yoki bir niche ta`lim yo`nalishlari bo`yicha amalga oshiriladi.

54. ` 19-son BMSM da ta`lim jaroyini davlat va rus tilida olib boriladi.

5-Bob Ta`lim muassasasining tuzilishi

55. 19-son BMSM Toshkent shaxar xokimligining qarori bilan tashkil etiladi.

56. 19-son BMSMning tarkibiy bo'linmalarni director, direktorning o`quv marifiy ishlar bo`yicha o`rinbosari,direktorni xo'jalik ishlari bo`yicha o`rinbosari,buxaltir, bo`linma mudirlari, o`qituchilari va konsertmeysterlar,xamda xizmat ko'rsatadigan xodimlar tashkil etadi.

57. 19-son BMSMda o`quv- tarbiya jarayoni samadorligini oshirish maqsadida direktorning buyrug`I asosida ta`lim yo`nalishlari bo`yicha kamida 3 mutaxassisdan iborat bo`linmalar tashkil etadi.

58. 19-son BMSM direktorning o`quv marifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari musiqa va san`at soxasi bo'yicha kamida bakalavr darajadagi oliy ma`lumotli xorijiy tillarda birining boshlang`ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanishning biladigan, uchyildan kam bo'lmagan pedagogic ish stajiga ega bo`lgan tarjibali mutaxassislardan tayinlanadi.

Bolalar musiqa va san`at maktabi direktirning o`quv- marifiy ishlar bo`yicha o`rinbosari Madaniyat boshqaruv organlari tomonidan lavozimidan ozod etiladi.

59. 19-son BMSM direktorninh o`qumarifiy ishlar bo`yicha o`rinbosarining vazifalari quyidagilardan iborat;

O`quv – tarbiyaviy ishlar va ish xujjatalarning mazmunini nazorat qilish;

O`quv - uslubiy va manaviy -marifiy ishlarni tashkil qilish;

O`qitish uslubini taxlil qilish maqsadida o`quv mashlug`otlariga kirish;

Pedagogik xodimlarning bolalar musiqa va san`at maktabi ichki mexnat tartibi qoidalariga rioya etishini nazorat qilish;

O`quv tarbiyaviy, uslibiy ish rejalari, dars jadvali, ochiq eshiklar rejasi sinov imtixonlari pedagogiclar xaqida ma`lumotlar o`quv mashg`ulotlari tarifikatsiyasini tuzish va tasdiklash uchun bolalar musuqa va san`at maktabi direktoriga taqdim etish;

Direktor bo`lmagan vaqtda uning vazifasini bajarib turadi.

Pedagogik xodimlar tomonidan dars jadvali, o`quv – uslubiy,tarbiyaviy xamda sinfdan tashqari ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

Marifiy axloqiy tarbiyaviy ishlarning va o`quv jarayonini tashkil qilish;

O`quv-tarbiyaviy ishlarning yillik va oylik rejalarini ishlab chiqish;

Kadrlarni tanlash xamda ularni joy joyiga qo`yishda ishtirok etish;

Pedagogik xodimlarga metodik yordam kursatish pedagogik xodimlarning pedagogik faoliyatini taxlil qilish;

O`quvchilarning o`zlashtirilishi va xulqining monitoriingini amalga oshirish;

Yakka tartibdagi va gurux jurnallarining belgilangan tartibda yuritilishini taminlash, o`quv - tarbiyaviy ishlar axvoli va natijalari bo`yicha xisobot tuzish;

O`quv yili davomida pedagogic xodimlarningo`quv yuklamalaridagi o`zgarishlarni muvofiq lashtirib boorish;

Sanitariya-gigina talablarni mexnatni muxofaza qilish, texnika va yong`in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

60. 19-son BMSM direktorning xo`jalik ishlari bo`yicha o`rinbosari marifiy- xo`jalik faoliyati bo`yicha tarjibaga ega bo`lgan, kamida o`rta maxsus va bakalavr darajasidagi oily ma`lumotli xorijiy tillardan birining boshlang`ich bosqichiniva axborot kammunikatsiya texnalogiyadan foydalanishni biladigan mutaxassislik bo`yicha ikki yildan kam bo`lmagan, ish stajiga ega bo`lgan bo`lgan mutaxassislardan tayinlanadi.

Bolalar musiqa va san`at martabi direktorning xo`jalik ishlari bo`yicha o`rinbosari Madaniy boshqaruv organlari tomonidan lavozimga tayinlanadi. Va lavozimdan ozod etiladi.

61. Direktorning xo`jalik ishlar bo`yicha o`rinbosarining vazifalari quyidagilardan iborat.

Xo`jalik faoliyatini boshqarish, bolalar musiqa va san`at maktabining o`quv mashg`ulotlarini o`tgazish uchun tayyor xolda saqlanishini taminlash;

Bolalar musiqa va san`at maktabi mablag`laridan maqsadli foydalanish tadbirlarning o`z vakolati bo`yicha doirasida ishlab chiqish xamda ulardan to`g ri foydalanilishini taminlash;

Bolalar musiqa va san`at maktabining moliyaviy faoliyat natijalarini taxlil qilish shartnoma majburiyatlarining belgilangan muddatidan to`liq bajarilishini ta`minlash,moliyalashtirishning qonun xujjatlarida taqiqlanmagan turli manbalar xisobiga byujiddan tashqari mablag`larni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishini nazorat qilish;

Tavor- moddiy boyliklar va asosiy vositalar tushumini to`liq xisobga olish;

Bolalar musiqa va san`at maktabiga qo`shimcha moliyaviy manbalar va moddiy mablag`larni jalb etish xamda xodimlar va o`quvchilar ychunn zarur ijtimoiy- maishiy shart –sharoitlarni taminlash chora tadbirlarni amalga oshirish;

Bolalar musiqa va san`at maktabining o`quv jixozlari, asbob- uskunalari va boshqa ta`lim vositalarini saqlanishini va ulardan samarali foydalanishini taminlash;

Moddiy – texnik bazasini rivojlantirish ishlarini shaklllantirish, bino va qo`shimcha obyektlarning texnik xolati va jixozlanganlini mumtazam ravishda o`rganib boorish;

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonining tegishli ravishda ko`mir, suyuq yoqilg`i tabiy gaz va elektir energiyasi bo`lgan extiyojlari aniqlash va ma`lumotlarni bolalar musiqa va san`at maktabi direktori taqdim etish xamda qabul qilingan yoqilg`ilarning sifati va saqlanishini taminlash.

Bolalar musiqa va san`at maktabiga biriktirilgan xududlarni obodonlashtirilgan ko`kalamlashtirish, va tozalash ishlariga raxbarlik qilish, o`ziga buysinuvchi tegishli bo`linma xamda texnik xizmat ko`rsatuvchi xodimlar ishlarini muvofiqlashtirish;

Sanitariya qoidalari, normalari va gigina normatuvlari mexnati muxofaza qilish texnika va yong`in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

62.. 19-son BMSM bo`linma mudiri musiqa va san`ati soxasi bo`yicha kamida bakalavr darajasidagi oily ma`lumotli xorijiy tillarda birining boshlang`ich bosqichini va axborot kommukatsiya texnalogiyalaridan foydalanishni biladigan uch yildan kam bo`lmagan pedagogik ish stajiga ega bolgan tajribali mutaxassislardan tayinlanadi.

Bolalar musiqa va san`at maktabi bo`linma mudiri vazifasiga direktorning buyrug`I bilan etakchi va tarjibali o`qutuvchilardan biri tayinlanadi va ozod etiladi.

63. 19- son BMSM bo`linma mudirining vazifalari quyidagilardan iborat;

Bo`linma faoliyatini muvofiqlashtirish;

O`quv-uslubiy va sinfdan tashqari ishlar boyicha bo`linmaning yillik ish rejasini tuzish;

